

## O'QUV DASTUR PASPORTI

MMO-713-2024 sonli o'quv dasturi uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta'lif muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2024 yil 6 iyuldagi № 1-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan

Amal qilish muddati 2026 yilgacha

<b>Ta'lif muassasasi nomi</b>	SSV qoshidagi Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
<b>Kafedra</b>	1-Ultratovush diagnostikasi
<b>O'quv dastur nomi</b>	«Tug‘ma nuqsonlarning prenatal ultratovush diagnostikasi»
<b>O'qish turi</b>	Mavzuiy malaka oshirish kursi
<b>O'quv dastur mualliflari</b>	Normuradova N.M., Fazilov A.A., Rasulova M.M., Miryusupov M.M., Ikramova Z.T., Jurayev Z.A., Niyazov A.N.
<b>Kursning umumiy soati</b>	54 kredit

### Kursda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar



DSc, dotsent  
Normuradova N.M.



Assistant  
Xujakulov O.A.



Assistant  
Kurbanova V.V.

<b>Maqsad</b>	Prenatal davrda homilada tug‘ma nuqsonlarini ultratovush tashxislashda nazariy bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash, mavjud xalqaro standart protokollarga (ISUOG), dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillariga asoslangan holda tekshirish o‘tkazish kompitensiyasini shakllantirish.
<b>Kursga taklif qilingan mutaxassislar – kontingent</b>	Ultratovush diagnostikasi mutaxassislari, klinik radiologlar
<b>Kurs vazifalari</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>- Tinglovchining akusherlikda ultratovush diagnostikasi qo‘llanilish asoslari, xavfsizlik choralarini borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish;</li><li>- Tug‘ma nuqsonlarni aniqlashda birinchi, ikkinchi va uchinchi skrining ultratovush tekshirish muddatlari, maqsadi va mohiyati borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish;</li></ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Homilada uchraydigan tug‘ma nuqsonlarni tizimli o‘rganish, ularning ultratovush tashxisotini aniq va bilvosita belgilarini mukammal o‘zlashtirish, jumladan, markaziy nerv sistemasi va yurak nuqsonlari tashxisotiga alohida yondoshib, bu borada jahondagi ilg‘or zamonaviy nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini takomillashtirish;</li> <li>- Homilada uchraydigan irsiy kasalliklarni ultratovush tashxisoti imkoniyatlari bilan tanishtirish, ultratovush sindromologiyasi bo‘yicha tizimli, izchil bilimlarini chuqurlashtirish;</li> <li>- Egiz homiladorlikda uchraydigan nuqsonlar borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish va ultratovush tashxisoti malakalarini mukammallashtirishdan iborat</li> </ul>
<b>Kurs tarkibi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Modul. Akusherlik amaliyotida ultratovush tashxisotining zamonaviy usullarining qo‘llanilish asoslari va xavfsizlik choralar.</li> <li>2. Modul. Prenatal ultratovush skrining tekshirish usuli. Homilaning normal ultratovush anatomiysi standartlari.</li> <li>3. Modul. Homilada irsiy kasalliklar ultratovush markerlari. Prenatal sindromologiya.</li> <li>4. Modul. Homilaning markaziy nerv tizimi nuqsonlari ultratovush tashxisoti.</li> <li>5. Modul. Homilaning yuz va bo‘yin sohasi nuqsonlari ultratovush tashxisoti.</li> <li>6. Modul. Homilaning yurak-qon tomirlar tizimi nuqsonlari ultratovush tashxisoti.</li> <li>7. Modul. Homilaning o‘pka va hazm a’zolari tizimi, hamda qorin oldingi devori nuqsonlari ultratovush tashxisoti.</li> <li>8. Modul. Homilaning siydiq va tanosil a’zolari tizimi nuqsonlari ultratovush tashxisoti.</li> <li>9. Modul. Homilaning qo‘l-oyoqlar tizimi nuqsonlari ultratovush tashxisoti.</li> <li>10. Modul. Egiz homiladorlikda uchraydigan tug‘ma nuqsonlar.</li> </ol>
<b>O‘qish bazalari:</b> 1.TXKMRM qoshidagi Tibbiy o‘quv maslahat markazi	<p>2. Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi. Ona va bola skrining bo‘limi.</p>   

4. GS Medical klinika



Simulyatsion  
asbob/uskunalar

